

TIBBIYOT MASALALARIGA BAG'ISHLANGAN BRIFING TASHKIL ETILDI



TIBBIYOT MASALALARIGA BAG'ISHLANGAN BRIFING TASHKIL ETILDI

Bugun tuman hokimligi majlislar zalida tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev ishtirokida "So'x tumanida sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish istiqbollari to'g'risida" brifing o'tkazildi. Brifingda tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i Usmonjon Mamadaliyev ham qatnashdi.

Brifingda ishtirok etgan ommaviy axborot vositalari vakillari va blogerlarga tuman hokimi va tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i masala yuzasidan atroflicha ma'lumot berdilar.

Tuman hokimi So'x tumanida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi va bunday islohotlarning ko'lami tibbiyot sohasida kengligini o'z so'zida alohida ta'kidladi. Barpo etilayotgan tibbiyot maskanlari va tibbiyot muassasalarining qurilishi davlatimiz rahbari e'tibori asosida amalga oshirilayotgani qayd etildi.

Tibbiyot birlashmasi boshlig'i Usmonjon Mamadaliyev ham brifing ishtirokchilariga ma'lumot berar ekan, eng avvalo, o'tgan 2021 yili tuman tibbiyot sohasida amalga oshirilgan ishlar xususida alohida to'xtaldi.

Shuningdek, yangi 2022 yildagi rejalar haqida ham ishtirokchilarga ma'lumot berildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-17 16:57:38